

TURKIY DUNYONING IKKI BUYUK MASLAKDOSHI: BEHBUDIY VA GASPRINSKIY

Sodiqova Nargiza Nasri qizi

ZARMED universiteti o'qituvchisi.

nagisodiqova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17857930>

Annotatsiya. Ushbu maqola XX asr jadidchilik harakatining ikki buyuk namoyondasi bo'lmish Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy o'rtasida shakllangan hamfikirlik hamda bu g'oyalarning o'zaro tahlili natijalariga bag'ishlangan. Maqolada Behbudiyning Istanbul safari chog'idagi xotiralaridan ham namunalar keltirilgan bo'lib, bu Gasprinskiy va Behbudxo'ja o'rtasidagi munosabatlarni yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, yangi usul maktabi, "Oyina" jurnali, "Tarjimon" gazetasi, darslik, jo'g'rofiya.

TWO GREAT CONSULTANTS OF THE TURKISH WORLD: BEHBUDIY AND GASPRINSKIY

Abstract. This article is devoted to the results of the mutual analysis of these ideas and the common ground that developed between Ismail Gasprinsky and Mahmudkhodja Behbudiy, two great representatives of the Jadid movement of the 20th century. The article also presents examples from Behbudiy's memoirs during his trip to Istanbul, which serve to further clarify the relationship between Gasprinsky and Behbudkhodja.

Keywords: Jadidism, New Method School, "Oyina" magazine, "Tarjiman" newspaper, textbook, geography.

Turkistonda milliy uyg'onish harakatining jadallashishi va uning asosiy bo'g'ini hisoblangan – yangi usul maktablarini ochish g'oyasining ommalashuvida Ismoil Gasprinskiyning o'rni beqiyosdir.

Mustamlakachilik muhitida Rossiya hududlarida yashagan barcha turkiy xalqlarni mudroq holatdan uyg'otishni, ularni ma'rifat vositasida milliy taraqqiyot yo'liga boshlashni o'ziga maqsad qilib olgan Gasprinskiy hamda uning "Tarjimon" gazetasi bilan yaqindan oshno bo'lish Behbudiyning Turkiston jadidlariga peshqadam sifatida shakllanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. "Tarjimon" va Gasprinskiy faoliyati Behbudiy e'tiroficha, Turkistonda juda katta ta'sirga ega bo'lgan. Behbudiy Turkistondagi barcha muallimlar "Tarjimon" yordamida turkiy tilni o'rganganliklarini hamda "Tarjimon" vositasida zamonaviy adabiyot bilan tanishish imkoniga ega bo'lganliklarini ta'kidlaydi.

Behbudiy Gasprinskiy bilan bir necha marotaba ko'rishgan. Ularning Istanbul shahrdagi uchrashuvi haqidagi tafsilotlar Behbudiyning "Oyina" jurnalida (1914 yil, 49-son) e'lon qilingan.

...1914 yil 20 iyun. Asr vaqti. Behbudiy marg'ilonlik mudarris hamrohi bilan birga Istanbul shahridagi Gulxona bog'ining salqin xiyobonida suhbatlashib borardi. Oldinda ketayotgan ikki kishi haddan ziyod sokin odim tashlab borayotgani uchun Behbudiy bir qo'lini ko'ksiga qo'yib, ularga salom berayotgan kishidek hamrohi bilan tez yurib, ulardan o'zib ketadi.

Begona kishilardan biri boshiga barra qoraqo'l telpak kiygan tatar, ikkinchisi esa faslik turk edi. Behbudiy bu ikki kishidan biri Gasprinskiy, ikkinchisi esa Hamdulloh Subhibek emasmikan, degan xayolga boradi. Behbudiy hali o'n qadam ham yurmagan edi, orqadan: "Ay, xoja!" degan tanish ovoz eshitiladi.

Bu ovozni eshitishi bilan Behbudiyning yuragi gurs-gurs urib, o'sha zahoti orqaga o'giriladi. Uning qarshisida bog'chasaroqlik buyuk ma'rifatparvar turardi. Hamdulloh Subhibek Behbudiyni orqasidan tanib qolib, Gasprinskiyga u haqda so'zlab ulgurgan edi. Baland bo'yli, xushqomat lekin turkistonliklarda kam uchraydigan ko'k ko'zlarida g'ayrat chaqnab turuvchi Behbudi o'sh apaytda 39 yoshda edi. Do'stlar bir-birlariga quchoq ochib ko'rishadilar. So'ngra Gasprinskiy Behbudiyning boshidan-oyog'iga qadar nazar tashlab, xitob qiladi:

- Ne uchun bu qadar keksaymoq?!

Behbudi bu kutilmagan savolga munosib javob qaytaradi:

- Ne uchun bu qadar orig'lamoq?!

Do'stlar beixtiyor kulib yuboradilar. Behbudi shu kunning ertasiga Shom va Misrga safarga ketajagini aytgach, Gasprinskiy: "Unday bo'lsa, suhbat etaylik", - deb hamrohiga javob beradi. Behbudi ham mudarris bilan xayrlashadi. Do'stlar bog'dan chiqib, aravada Shohin Posho mehmonxonasiga yetib keladilar. Taom buyurgan bo'lishlariga qaramay, har ikkala munavvar taomni unutib, suhbat dengiziga g'arq bo'ladilar. Gasprinskiy har uch-to'rt daqiqada engil yo'talib turganiga qaramay, "Rusiyadan, Turkistondan, umum olami islomdan, dunyodan so'ylaydi", "musulmonlarni kundan-kun taraqqiy etishini so'ylab", xursand bo'ladi. So'ngra:

- Endi siz so'ylang, azizim Mahmudxo'ja, - deb so'z navbatini Behbudiya beradi.

Behbudi "Samarqand, Buxoro, Toshkand, Xiva, Farg'ona, xulosa, har biridan so'ylaydi". - Ollohg shukur, - deydi Gasprinskiy do'stining so'zlarini tinglab bo'lgach, - turkistonlik qardoshlar bolalarini hukumat maktablariga o'qishga bera boshlabdilar. Bugun ikki gazeta va bir jurnalingiz bor. Maktablaringiz ham bir oz taraqqiy etmoqda. Hukumat maktablariga ko'proq bola beringiz. Rus madaniyatidan qochmangiz. Oh, bilmayman, Buxoro na bo'lur?..

- Afandim, - javob beradi Behbudi, - Buxoroni hukumatimiz, ya'ni Rusiya tarbiya qilmaguncha undan biror narsani umid qilib bo'lmas.

- Ha, to'g'ri, oxir-oqibat shunday bo'lmog'i lozim, - deydi Gasprinskiy o'ksinib.

So'z boshqa mavzuga ko'chadi. Behbudi bir necha marotaba: "Siz hazratlari endi istirohat qilingiz", deb ketishga ruxsat so'raydi. Lekin Gasprinskiy samarqandlik do'stining ketishini istamay: "Siz bu erda bo'lsangiz, men istirohat qilgandek bo'laman. Agar ketadigan bo'lsangiz, xat yozishga o'tiraman", - deydi.

Gasprinskiy o'sha yilning fevral oyida Rossiya Davlat Dumasi musulmon fraksiyasining a'zolari bilan uchrashish uchun Peterburgga borganida shamollab qolib, rasmiy majlislarda ishtirok etolmagan ekan. Shuning uchun u agar Istanbulning havosi yoqsa, bu erda bir muncha vaqt turmoqchi, so'ngra, Olloh xohlasa, Kohiraga borib, ba'zi bir ishlar bilan shug'ullanmoqchi ekan.

- Safardan qaytishingizda Bog'chasaroqlik kirib o'ting, avtomobilda birga yurib, sizga Qrimni ko'rsataman, - deydi u.

Gasprinskiy xastalikdan bezovta bo'layotgani sababli, Behbudi izn so'rashiga qaramay, karavatga cho'zilib, soatlab so'zlaydi. Bir mahal qarashsa, tun yarimlab qolgan, ular esa oz emas - ko'p emas, etti soat suhbatlashib o'tirishgan ekan. Gasprinskiy shunday keyingina do'stining ketishiga ruxsat beradi, uni zinaga qadar kuzatib va undan Bog'chasaroqlik, albatta, kelishi haqida va'dani olib, u bilan vidolashadi.

Behbudi qrimlik do'sti bilan Istanbulda bo'lib o'tgan uchrashuv tafsilotini hikoya qilib bo'lgach, 1908 yili Samarqandda bo'lib o'tgan uchrashuvni eslab, bunday yozgan:

“7 sana muqaddam ustod hazratlari Samarqandg‘a kelib, muallim Shakuriy va bizga mehmon bo‘lub edilar. U zamongidan ko‘ra endi ko‘p orig‘lab ekanlar. Ustod hazratlarini Istanbulda ko‘rmoq va suhbat etmoq hech xayolimga o‘tmagan edi. Oллоhning lutfi ila ustod hazratlarining tanhoi 7 soat suhbatlaridan u qadar fayz topib, mamnun qoldimki, aytgan ila ado etolmayman va ul suhbatning lazzati aslo mandan ketmaydur. Koshki ertasi Shomg‘a ketmay, ustod hazratlari ila ziyodaroq suhbat etsa edim. Oh! U ustodi komilni endi qo‘ldan berduk va olami ruhoniyyg‘a uchdi. Balki uyqularda, hulyo (xayol) larda ul zoti sotuda sifatning ruhi ila suhbat etarmiz”. Bu, XX asrning birinchi choragida yashab, turkiy xalqlar dunyosini ziyo bilan ravshan qilgan ikki zabardast ma‘rifatparvarning eng so‘nggi diydorlashuvi edi.

Behbudiy asrimiz boshlaridagi vaktli matbuotda bosilgan maqolalarida yangi maktablar uchun o‘zbek va tojik tillarida chiqargan juda ko‘plab darslik va ko‘llanmalarda Gasprinskiy karashlariga tayanib ish ko‘radi. Xususan, Gasprinskiyning 1898 yilda bosilib chiqqan “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobiga ergashdi. “Usuli savtiya” maktablarining Rusiyada muassisi Ismoilbek hazratlaridir. Birinchi yangi usul alifboning murattib va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridir”, - deb yozgan edi Behbudiy 1914 yilda.[Qosimov B., 1994;11]

Behbudiy Gasprinskiyni har jihatdan o‘ziga ustoz bildi. Uning aqlu g‘ayratini, millat yo‘lidagi fidoyiligini juda yuksak baholadi. Uning vafoti munosabati bilan yozgan maqolasida “Rusiya musulmonlari ichinda bunday bir zot kelgan yo‘qdur”,-deb ta’kidladi. Darhaqiqat, Behbudiy unga o‘z asarlarida, faoliyatida tez-tez murojaat qilgan edi. Jumladan, 1905 yilda jo‘g‘rofiya bo‘yicha ilk maktab darsligi tuzganida Ismoilbekning “Turkiston ulamosi” kitobidagi ma’lumotlardan keng istifoda etdi. Ko‘p o‘tmay Ismoilbek ham vafot etadi. Istanbuldagi uchrashuv so‘nggi ko‘rishuv bo‘lib qoladi. [Karimov N.,210;14]

Behbudiy Gasprinskiy yo‘lga qo‘ygan, “usuli jadid” maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo‘llanmalar bilan ta’minlashda jonbozlik ko‘rsatdi. Bu maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo‘la olishi mumkinligi haqida o‘nlab maqolalar yozdi. Rajabamindagi Abdulqodir Shakuriy maktabini hovlisiga ko‘chirib keldi. “Muntahabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Qitobatul-atfol” (“Bolalar maktu- bi”), “Tarixi muxtasari islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Amaliyoti islom”, “Madxali jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muxtasari jug‘rofiyai rusiy” (“Rossiyaning qisqacha geografiyasi”) kabi darsliklar yaratdi. Nashriyot tashkil qilib, darsliklar va qo‘llanmalar, xaritalar bosib chiqargani ma’lum. [Mahmudxo‘ja Behbudiy. 2022;134]

Mahmudxo‘ja Behbudiy turkistonlik jadidlar orasida Gasprinskiy bilan mustahkam aloqa o‘rnatgan va “Tarjimon”da faol ishtirok etgan. Shu bilan birga Behbudiy o‘zi tashkil etgan “Oyina” jurnalida Ismoil Gasprinskiyga bag‘ishlangan maqolalar ham chop etib bordi. Behbudiy jadidlarning mo‘tabar ustozlari Ismoil Gasprinskiyni “Hazrat” deb atar, unga nisbatan hurmat-e’tibori nihoyatda baland edi. [Alimova D.A., Rashidova D.A.,1999;36]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston jadidlarining karvonboshisi sifatida shakllanishida, uning dunyoqarashi, siyosiy ongi va faoliyatining keng qirrali bo‘lishida Ismoil Gasprinskiyning fikr va g‘oyalari turtki bo‘ldi. Gasprinskiy va Behbudiy orasidagi ham ma’rifiy ham siyosiy sohadagi hamkorlik Gasprinskiyning vafotiga qadar juda samarali davom etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. T:"Akademiya", 1999
2. Qosimov B. Maslakdoshlar. T:"Sharq", 1994
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T:"Ma'naviyat", 2002
4. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent, 2010
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Jadidlar. Yoshlar nashriyot uyi, 2022